

# O‘zbekiston Respublikasi Milliy Manfaatlar Konteksida “O‘zbekiston-2030” Strategiyasining Pozitsiyasi

**Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Siyosatshunoslik yo‘nalishi Siyosat-22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarida “O‘zbekiston-2030” strategiyasining o‘rni va ahamiyati hamda egallagan pozitsiyasi haqida ilmiy ma’lumotlarni beradi. Maqolada “O‘zbekiston-2030” strategiyasining istiqboldagi davlat boshqaruvida tutgan taktik vazifalari va natijalari ham keltirilib o‘tiladi. Maqola bir qator olimlar, siyosat arboblari va mutaxassislarining bu boradagi fikr-mulohazalari bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ulardagi bu ilmiy masalaga yondashuvi keltirilib o‘tiladi. Maqola keng ilmiy jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

**Kalit so‘zlar:** “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, strategiya, davlat boshqaruvi, milliy manfaat, tashqi siyosat, global jarayon.

## KIRISH

Zamonaviy globalshuv, urbanizatsiya, investitsiyalar, intellektual resurslar, sayyohlarni jalb qilish uchun hududlar o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida strategik rejalashtirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarini hal qilishda hukumat va jamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirish mumkin bo‘lgan eng munosib vositaga aylandi. Strategik dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirib borish amaliyoti ko‘plab mamlakatlarda uzoq vaqt davomida qo‘llanib kelinmoqda. Strategik hujjatlardan foydalanish turli siyosiy rejimlarda (demokratik va avtoritar) va iqtisodiy tizimlarda (rejali va bozor) uchraydi. 1920-1950-yillarda strategik hujjatlar bilan ishlash birlamchi sanoatlashtirish, urushdan, inqilobdan keyingi modernizatsiya, iqtisodiyotni rivojlantirish va isloh qilish vazifalarini amalga oshirishda joriy etildi. Zamonaviy davlat boshqaruviga strategik dasturiy hujjatlarning joriy etilishi davlat boshqaruvi samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar strategik hujjatlarni amalga oshirishning davlat institutlari faoliyati samaradorligiga va rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib bermoqda.<sup>1</sup> Bu esa, nafaqat davlat boshqaruvidagi tarixiy asosdagi rivojlanishda strategiyalarning zaruriy imkoniyatlarini isbotlaydi. Balki, milliy manfaatlar borasidagi dolzarb oqibat va sabab masalasini keltirib chiqaradi. “O‘zbekiston -2030” strategiyasi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimi va hokimiyatida hamda xalqaro davlatlar bilan mustahkam aloqalarda muhim konstruktiv va texnologik aloqa yo‘llarini vujudga keltirishda muhim taktik qadamlar va jarayonlarda o‘z statusi va nufuzini namoyish qilib kelayotganini aytish mumkin. Bu davlat, jamiyat hattoki xalqaro munosabatlar tizimidagi muvozanatlarni va natijalarni tadqim etishda zaruriy vosita hisoblanadi.

<sup>1</sup> Yusupov.J, Atavullayev.M, Akramov.J, Abdullayev.B. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2023. 215 b.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu eng avvalo, O‘zbekistonni 2030 –yilgacha zamonaviy, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotga ega davlatga aylantirishga qaratilgan strategik rivojlanish rejasidir.<sup>2</sup>

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, har bir millat va xalqning asrlar davomida shakllangan orzu niyat intilashlari orasida erkin va farovon hayotga erishishi alohida o‘rin egallaydi. Buning uchun esa xalqning bir tan bir jon bo‘lib butun kuchi, aqli shijoatini birgalikda ulug‘ maqsad sari harakatlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi asosiy g‘oyalarga e’tibor berilishi talab qilinadi:

- Birinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- Ikkinchidan aholimiz talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy tizimini tashkil qilish;
- Uchinchidan, mamlakatimiz aholisi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- To‘rtinchidan, xalqimiz xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

Ayni paytda yuqoridagi maqsad va vazifalari hal qilish uchun “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirishda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlari ma’sul hisoblanadi.<sup>3</sup> Yuqorida qayd etilgan masalalar zamonaviy “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyotidagi muhim imkoniyatlarni, bosqichlarni boshlashida muhim rolga ega.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining qabul qilinishi mamlakat taraqqiyotidagi muhim bosqich bo‘lib, farovon va adolatli jamiyat qurish istagini ifodalaydi. Bu 2023-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan referendumda umumxalq ovoz berish natijasida yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan strategik yo‘nalishlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni ifodalaydi.<sup>4</sup>

Strategiya beshta ustuvor yo‘nalishni qamrab oladi: har bir fuqaroga o‘zining salohiyatini to‘liq amalga oshirish uchun tegishli mos sharoitlar yaratish; barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash; atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini tejash; xalq manfaati yo‘lidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, qonun ustuvorligini va ijodkorligini ta’minlash; «xavfsiz va tinchliksevar davlat» prinsipiga rioya qilgan izchil siyosat davom ettirilmogda. Mazkur strategiyani implementatsiya qilish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga yetish respublikamizdagi barcha davlat muassasalari va tashkilotlari uchun ustuvor vazifa deb e’lon qilindi. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkil etilgan Respublika komissiyasiga bosh vazir Abdulla Aripov rahbarlik qilish vazifasi qo‘yilgan. Komissiya har olti oyda prezidentga hujjat ijrosi haqida hisobot berib bordi. Kelajakda mamlakatning asosiy rivojlanish vazifalarini belgilab beruvchi «O‘zbekiston –2030» strategiyasi va uni amalga oshirishning chora-tadbirlari loyihalari [regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz) va [2030.strategy.uz](http://2030.strategy.uz) portallarida keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.<sup>5</sup>

<sup>2</sup> Xoliqov L. M. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomini yuksaltirishda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining o‘rni. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishlari va istiqbollari-Yoshlar nigohida Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. 2024. 7 b, [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817\\_1\\_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf)

<sup>3</sup> Xudayberdiyev.X. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining asosi. Maqola. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti. 2024. <https://tdmau.uz/2024/02/22/ozbekiston-2030-strategiyasi-mamlakatimiz-taraqqiyotining-asosi/>

<sup>4</sup> Uzbekov.M.O. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi: Har bir inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib shart-sharoitlarni ta’minlash. Maqola. Farg‘ona politexnika Instituti. <https://ferpi.uz/event/538>

<sup>5</sup> Shrinov.A.Q. “O‘zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish islohatlar tendensiyasi sifatida. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishlari va istiqbollari-Yoshlar nigohida Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. 2024. 5 b. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817\\_1\\_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf)

O‘zbekiston-2030 strategiyasi 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PF-158 sonli farmoni asosida tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarida davlatning “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi prezident farmonida “Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘giniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida ushbu “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ishlab chiqildi.” degan muhim me‘yorlar keltiriladi.<sup>6</sup> “O‘zbekiston-2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalish, 100 ta maqsad. 400 ta vazifani qamrab olgan bo‘lib<sup>7</sup>, tashqi siyosat, milliy xavfsizlik va milliy manfaat masalalarida strategiyaning 5-yo‘nalishi “Xavfsizlik va tichliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan izchil davom ettirish” deb nomlanadi va bu yo‘nalish 2 ta qismga “Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha islohatlar”, 6 ta maqsad, 90-95-maqsadlarni va “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa solahiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohatlar”, 5ta maqsad 96-100-maqsadlarni<sup>8</sup> aks ettiradi. Bu yo‘nalish jami 11 ta maqsadni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda davlatning tashqi siyosat masalasida faoliyati, qo‘shni davlatlar bilan integratsiyasi, diplomatik hamkorliklar, tashqi migratsiya, va milliy xavfsizlik va mudofaa salohiyati, chegaralar, kabi masalalar tadqiq etiladi.<sup>9</sup>

## NATIJALAR

O‘zbekiston respublikasi tashqi siyosat masalasida bir qator imkoniyatlarga erishdi. Jumladan quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi mamlakatning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat yuritmoqda. O‘zbekistonning hozirgi tashqi siyosati jahon va mintaqadagi jadal o‘zgarishlar hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarni hisobga olgan holda shakllantirilmog‘da. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 142 davlati bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatgan. Bugungi kunda Toshkentda shahrida 46 ta xorijiy davlatlarning elchixonasi, 2 ta bosh konsullik muassasalari, 13 faxriy konsullar 24 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 26 ta xorijiy davlatlarning xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1ta savdo vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 59ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarda akkreditatsiyadan o‘tgan O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning azosi bo‘lib ko‘p tomonlama hamkorlikning turli tuzilmalari bilan hamkorlik qilmoqda. (2023 yil ma‘lumoti.)<sup>10</sup> Bundan tashqari qabul qilingan yangi strategiyada oldingi strategiya va dasturlarga qaraganda yangi va takomillashtirilgan modellar, dasturlar, loyihalar, rejalar kiritilgan hisoblanadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishda 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida bajarilgan ishlarning tahlili, vujudga kelgan muammolar va to‘liq yoki qisman amalga oshirilmagan vazifalarning sabablarini inobatga olish lozim. Bundan tashqari, har bir soha bo‘yicha qabul qilingan manzilli hujjatlar ham chuqur tahlil qilinishi lozim. Misol uchun, so‘nggi to‘rt yil davomida muayyan sohalarini 2030-yilga qadar rivojlantirishga qaratilgan 12 ta dasturiy hujjatlar qabul qilingan.<sup>11</sup> «O‘zbekiston — 2030»

<sup>6</sup> “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>7</sup> O‘zbekiston-2030 startegaiyasi <https://advice.uz/oz/document/3149>

<sup>8</sup> “O‘zbekiston-2030”-xalq strategiyasi onlayn portal. <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy>

<sup>9</sup> O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosati. <https://gov.uz/en/mfa/sections/view/14455>

<sup>11</sup> Rasulev A.K. “O‘zbekiston -2030” strategiyasi taraqqiyotimiz uchun qanchalik ahamiyatli. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huziridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institut. 2023.

<https://oz.illp.uz/o%CA%BBzbekiston-2030-strategiyasi-taraqqiyotimiz-uchun-qanchalik-ahamiyatli/>

strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.<sup>12</sup>

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha yo‘nalish va maqsadlarning istiqboldagi ko‘rsatkichlarini ifodalaydi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi dinamikasida siyosiy institut hisoblangan davlat, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, siyosiy hokimiyat tuzilmalarining va davlat siyosiy hayotidagi siyosiy jarayonlarning komponentlik o‘rni muhim hisoblanadi. Ushbu siyosiy institutlar va jarayonlar o‘zining taktik xizmatlari orqali strategiyada ko‘rsatilgan maqsad va yo‘nalishlarda tuzilmaviy komponent sifatida pozitsiyalarini ko‘rsatadi.<sup>13</sup> Har qanday davlat strategiyasini harakatga keltiruvchi mexanizmlar mavjud hisoblanadi. Ana shunday mexanizmlar va davlat boshqaruvi dvigateli bu siyosiy institutlar hisoblanib, zero, ularning amaliy faoliyatisiz ijro va nazorat funksiyalari bajarilmaydi. Natijada esa, strategiyadagi nufuz va ishonchlilik darajasi tushib ketishi, bu esa ko‘lami jihatdan milliy manfaatlar darajasidagi keskin vaziyatlarni va sharoitlarni, muammolarni yaratishiga olib borishi mumkindir. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi davlat milliy manfaatlarining hozirdagi taktik va istiqboldagi dinamik progressiyasini ifodalaydigan rasmiy jihatdan huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy soha asoslaridan kelib chiqib, o‘z milliy manfaat borasidagi rolini namoyon etuvchi O‘zbekiston Respublikasining huquqiy asoslaridan biri va harakatdagi shaklidir.

## **MUHOKAMALAR**

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida davlatning ham ichki, ham tashqi munosabatlardagi oldingi qabul qilingan dasturlaridan farqli ravishda, xalqaro va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib uyg‘unlashgan va davlat boshqaruvi hokimiyatlaridagi asosiy ko‘rsatkichlarning genezisi fuqaroning bu jarayonlarda ishtiroki va bog‘liqligi bilan ifodalanadigan, jahon siyosatida isbotlangan tajribalardagi kuchli fuqarolik jamiyati va davlat status-kvosi, uning samarali va sifatli bo‘lishi amalda “fuqaro+davlat”, “jamiyat+davlat” legitim munosabati hamda O‘zbekistonning yangi rivojlanish strategiyasida inson qadri va jamiyat farovonligi va xalq xizmatini samarali va adolatli tashkil etish g‘oyasi bilan bog‘langan holda ifodalanganligi strategiyaning ishonch impulsini oshirishga xizmat qiladi.<sup>14</sup>

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari ichida, Birlashgan Millatlar tashkiloti ichida, Xalqaro davlatlar va tashkilotlar orasidagi nufuzi va tutgan roli ko‘proq rasmiy-huquqiy asoslarni talab etmoqda. Bu bilan mamlakat milliy manfaatlari va davlat tashqi siyosiy masalalarida konfliktlardan uzoqda bo‘lish, hamkorlik va integratsion aloqa kanallariga ega bo‘lish va eng muhim “Yangi O‘zbekiston” fenomenidagidek davlatni barpo etish kabi modernizatsion va zamonaviy bosqichga ko‘tarilish va “Uchinchi renessans” to‘lqining markazi bo‘lish kabi sharafli va g‘oyatda qadrlil mas‘uliyatga erishish imkoniyati hozirgi O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridagi asosiy ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Biroq, bir qator masalalardagi muammolar va jarayonlarning ham mavjudligini inobatga olish, ularning risklari, mavjud tahdidlarga raqobatdosh ta‘sir nuqtalariga ega bo‘lish zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlari masalasida siyosiy fanlar nomzodi Xasanov Ulug‘bek Otaboyevich quyidagi ilmiy tadqiqot xulosalarini bergan:

“Milliy manfaat – davlatlar hayotida, ular o‘rtasidagi munosabatlarda asosiy o‘rin tutadigan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Bugungi dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv va o‘zaro bog‘liqlik jarayonlari nafaqat milliy manfaatlarning ahamiyatini kamaytirmaydi, balki dunyodagi geosiyosiy vaziyatdagi jiddiy o‘zgarishlari, xalqaro kuchlar muvozanati va ular bilan bog‘liq muammolar tufayli ko‘p jihatdan oshirib bormoqda. Davlatning milliy xavfsizligini ta‘minlash

<sup>12</sup> G‘ulomov M. “O‘zbekiston -2030” strategiyasi va inson huquqlari. Maqola Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. 2024. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m11427>

<sup>13</sup> Mo‘minov B.Y., Mardanov S.Z., “O‘zbekiston-2030” strategiyasi dinamikasida siyosiy institut va jarayonlarning taktik xizmatlari va ahamiyatlari. Maqola. “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences” 2024. 98 b.

<sup>14</sup> Mardanov.S.Z. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish g‘oyasining aks etishi. Maqola. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 34-son. 2024. 23 b.

masalasi milliy manfaatning asosiy nuqtasidir. Milliy manfaatlarning chuqur mazmuni xalqning o'ziga xos an'ana va urf-odatlar bilan belgilanadi. Uning butun madaniyati va ular ham ushbu madaniyatning asoslarini saqlashga, ham uni har bir muayyan davrda millat va davlat oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan yanada rivojlantirish va boyitishga qaratilgan. Milliy manfaatlar barqarorligi xalqaro munosabatlarga qaraganda ko'proq ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga bogliq. Buni O'zbekiston siyosati ham tasdiqlaydi.<sup>15</sup>

Mazkur mavzu doirasida qo'llanilgan milliy manfaat, tashqi siyosat, milliy manfaatning huquqiy asoslari tushunchalari masalasida O'zbekistonning bir qator ilm-fan vakillari va ziyolilari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Milliy manfaatlar masalasida xorijlik mutaxassis Marta Finnemor xalqaro siyosatga "konstruktivistik yondashuv" orqali tizimli tarzda milliy manfaat, tashqi siyosat va xalqaro siyosiy masalalarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan hisoblandi.<sup>16</sup>

Shuningdek, xalqaro darajada ko'pgina davlatlarda O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlari va ularning rasmiy-huquqiy asoslari va bir qator siyosiy jarayonlar AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaiya va Rossiya kabi davlatlar tomonidan yuqori baholangan.

Xususan, AQSh prezidenti lavozimida faoliyat ko'rstagani Bill Klinton milliy manfaatlar va tashqi siyosiy masalalar bo'yicha, 1994-yil 31 -fevral AQSH Milliy Fanlar akademiyasida "Milliy manfaatlarda fan bo'yicha forumi" da dunyo davlatlarining milliy manfaatlarini ifodalashda barcha imkoniyatlar va vositalar zaruriy ahamiyatga ega ekanligini, xususan, maruzasida innovatsion ilg'or texnologiyalar, strategiyalar, maqsadlarni ifoda etuvchi tuzilmalar ya'ni bir qator muassasalar, tashkilotlar haqida to'xtalib o'tgan.<sup>17</sup> Bu hammasi emas, mazkur mavzu keng va kattaligi bois, dunyoning deyarli barcha davlatlari vakillari o'z davlatlari misolida o'rganishgan. O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlari esa, rivojlanish kontekstida borayotganligi bois, uni tadqiq etuvchilar yildan-yilga ortib bormoqda.

## **XULOSA**

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global jarayonlarning murakkablashuvi va ko'p qirrali segmentatsiyasi barcha sohalarida muayyan o'zgarishlar va modernizatsion jarayonlar, standartlashuv va turli xil xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xalqaro maydondagi bir qator kuchlar o'z statusi va nufuzini yanada ortirish maqsadida ko'plab davlatlarning milliy manfaatlariga tahdid sola boshlagan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari bunday tahdid va xavflarga qanday javob qaytarishi va ularga nisbatan ta'siri masalalarida davlatning milliy manfaatlarini mustahkamlagan rasmiy-huquqiy asoslarining bu jarayonlarda qanday pozitsiyaga ega ekanligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik, dunyoda ro'y berayotgan tabiiy va texnogen omillarga boshqa davlatlar, tashkilotlar bilan birgalikda chora ko'rish, konfliktlar, urushlarda harbiy bloklar va ittifoqlar masalasidagi tanlovlarda tichlik pozitsiyasi, mamlakatimizning to'la-to'kis taraqqiyot yo'lidan borayotganidan dalolat hisoblanadi. Milliy manfaat masalasi - bu davlatning istiqboldagi va amaldagi strategiyalari, taktikalari, davlat dasturlari normativ huquqiy-hujjatlarida aks etgan maxsus prinsiplar, normalar, me'yorlar majmuidir. "O'zbekiston-2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, bir qator normativ huquqiy-hujjatlari "Tashqi siyosat konsepsiyasi to'g'risida", "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunlarda "Milliy manfaat" tushunchasiga qaratilgan bir qator normalar, me'yorlar,

<sup>15</sup> Xasanov.U.O. O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik muammolari: dis.siyosiy fanlar nomzodi: 23.00.04 – Xalqaro munosabatlar va jahon taraqqiyotining siyosiy muammolari. <https://www.disserscat.com/content/natsionalnye-interesy-respubliki-uzbekistan-i-problemy-bezopasnosti-v-tsentralnoaziatskom-re>

<sup>16</sup> Marta Fennimore. National Interest in International Society. Cornell University Press. 2014. 2 b. <https://www.cornellpress.cornell.edu/book/9780801483233/national-interests-in-international-society/#bookTabs=1>

<sup>17</sup> Bill Clinton. Executive Office of the President, Office of Science and Technology Policy, 1994-Education-31 p. [https://books.google.co.uz/books/about/Science\\_in\\_the\\_National\\_Interest.html?id=2WpQAAAAMAAJ&hl=en&output=html\\_text&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Science_in_the_National_Interest.html?id=2WpQAAAAMAAJ&hl=en&output=html_text&redir_esc=y)

yoʻnalishlar, taktikalar, maqsadlar va qoidalar keltirilgandir. Jahon siyosatida roʻy berayotgan voqealar va jarayonlarda milliy manfaatlarini saqlab qolish va uning istiqboldagi koʻp bosqichli rejalarini, taktikalarini, strategiyalarini hamda dasturlarini rivojlantirish masalasi davlat taraqqiyotining koʻp yillik imkoniyatlarini, sharoitlarini talab qiladi. Jumladan, “Oʻzbekiston-2030” strategiyasining taktik vazifalari, maqsadlari va bu maqsadlarida siyosiy institutlarning harakati va tutgan pozitsiyasi hamda roli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Yusupov.J, Atavullayev.M, Akramov.J, Abdullayev.B. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qoʻllanma. Toshkent 2023. 215 b.
2. Xoliqov L. M. Oʻzbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomini yuksaltirishda “Oʻzbekiston-2030” strategiyasining oʻrni. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish yoʻnalishlari va istiqbollari-Yoshlar nigohida Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar toʻplami. 2024. 7 b,  
[https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817\\_1\\_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf)
3. Xudayberdiyev.X. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining asosi. Maqola. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti. 2024.  
<https://tdmau.uz/2024/02/22/ozbekiston-2030-strategiyasi-mamlakatimiz-taraqqiyotining-asosi/>
4. Uzbekov.M.O. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi: Har bir inson salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib shart-sharoitlarni taʼminlash. Maqola. Fargʻona politexnika Instituti.  
<https://ferpi.uz/event/538>
5. Shrinov.A.Q. “Oʻzbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish islohatlar tendensiyasi sifatida. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish yoʻnalishlari va istiqbollari-Yoshlar nigohida Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar toʻplami. 2024. 5 b.  
[https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817\\_1\\_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_80DA8F507435CF810A4893E9A5793B29F5CD8DD1.pdf)
6. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
7. Oʻzbekiston-2030 startegaiyasi <https://advice.uz/oz/document/3149>
8. “Oʻzbekiston-2030”-xalq strategiyasi onlayn portal. <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/strategy>
9. Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
10. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi siyosati. <https://gov.uz/en/mfa/sections/view/14455>
11. Rasulev A.K. “Oʻzbekiston -2030” strategiyasi taraqqiyotimiz uchun qanchalik ahamiyatli. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huziridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institut. 2023.  
<https://oz.illp.uz/o%CA%BBzbekiston-2030-strategiyasi-taraqqiyotimiz-uchun-qanchalik-ahamiyatli/>
12. Gʻulomov M. “Oʻzbekiston -2030” strategiyasi va inson huquqlari. Maqola Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi. 2024.  
<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m11427>
13. Moʻminov B.Y., Mardanov S.Z., “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi dinamikasida siyosiy institut va jarayonlarning taktik xizmatlari va ahamiyatlari. Maqola. “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences” 2024. 98 b.
14. Mardanov.S.Z. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasida xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish gʻoyasining aks etishi. Maqola. Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 34-son. 2024. 23 b.

15. Xasanov.U.O. O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik muammolari: dis.siyosiy fanlar nomzodi: 23.00.04 – Xalqaro munosabatlar va jahon taraqqiyotining siyosiy muammolari.  
<https://www.dissercat.com/content/natsionalnye-interesy-respubliki-uzbekistan-i-problemy-bezopasnosti-v-tsentralnoaziatskom-re>
16. Marta Fennimore. National Interest in International Society. Cornell University Press. 2014. 2 b.  
<https://www.cornellpress.cornell.edu/book/9780801483233/national-interests-in-international-society/#bookTabs=1>
17. Bill Clinton. Executive Office of the President, Office of Science and Technology Policy, 1994- Education-31 p.  
[https://books.google.co.uz/books/about/Science\\_in\\_the\\_National\\_Interest.html?id=2WpQAAAAMAAJ&hl=en&output=html\\_text&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Science_in_the_National_Interest.html?id=2WpQAAAAMAAJ&hl=en&output=html_text&redir_esc=y)